Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish	1892
Ibrohimova Nilufar Qobil qizi	
Творческое наследие Тагай Мурада: его рассказы в оригинале и в переводе	1897
Меликулова Нилуфар Хамдуллаевна	
Gender Equality: an Important Prospect for the Development of a New Uzbekistan	1902
Khamidova Sitorakhan Mukhammadjonovna	
Gandbolchilarning jismoniy sifatlarini harakatli o'yinlar orqali rivojlantirish.....	1906
Lutpullayev Bunyod Ismatilayevich	
Abu Mansur al-Moturidiyning bilimning "Muvofiqlik nazariyasi"	1909
Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi	
Professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalaring rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari.....	1914
X. N. Agaliyeva	
Maktabgacha ta'limda bolalarning hissiy-ma'naviy rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyati	1920
Urinbayeva Barchinoy Zafarjanovna	
Yoshlarni milliy musiqa san'ati va an'anaviy xonandalikka bo'lgan munosabatini tarbiyalash	1924
Qurbonova Shoxisanam Axmadjonovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy fanlar mavzularini o'rganishdagi klaster yondashuvlari. 1930	
Umarova Nafisa Ahmatillovna	
11–15 yoshli suzuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish xususiyatlari	1934
Hasanov Anvar Toxirovich, Asqarova Zaynura	
Yosh voleybolchilarning jismoniy rivojlanishini o'rganish	1937
Sultonov Baxtiyor Abdumurodovich, Hasanov Anvar Toxirovich	



Школьные трудности в обучении и педагогическое диагностирование	1940
Урумбаева Айгуль Нагметовна	
Erkin kurashchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional kuch mashqlarining samaradorligi.....	1943
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li	
Употребление падежных окончаний на уроках русского языка	1947
Адилова Солияхон	
STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1951
Boltayeva Go'zal Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar	1954
Mansurova Lobar Luqmon qizi	
Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues	1958
Yusupova Nargiza Abdulxafizovna	
Использование интерактивных методов обучения русскому языку в медицинском вузе.....	1963
Бекмуратова Умида Аманбаевна	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
Namozova Nargiza Husniddin qizi	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
Rakhmonova Diyora Utkir's daughter	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich	
Voleybol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
Davulov Ozodbek Qalandarovich	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlar.....	1984
Djemilov Temur Rasimovich	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari	1993
Usmanova Sevara Akmalovna	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
Istamova Dilnoza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish	2012
Turaxujayeva Madina Norpulatovna	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni	2015
Karimov Faxriddin Xurramovich	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	2019
Djabbarov Axror Islomovich	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa	2023
Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun	2028
Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	2032
Almardanova Salomat Bobonazarovna	

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati	2035
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	
Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihasini amalga oshirishning o'ziga xosligi	2040
Azimova Odinaxon Abduqodir qizi	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	2043
Kayumova Nazokat Rashitovna	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari	2049
Kurbanov Baxrom	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari	2053
Madaminova Nilufar Madrasulovna	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari	2056
Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash	2059
Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2064
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari	2072
Mo'minova Dilnavoz Komilovna	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
Odina Otajonova	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari	2084
Oromiddinov Sardorbek Botirovich	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari	2089
Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
Qodirova Feruza Usmanovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
Sobirova Bonu Matkarimovna	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati	2099
Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi	2105
Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	2109
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
Y. T. Umarova	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	2118
Yakubova Manzura Abduraxmonovna	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish	2121
Yaxyayeva Umida Sharifovna	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli	2125
Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati	2130
Sodiqov Murod Naimovich	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi	2134
Tashpulatov Farxad Alisherovich	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
Eshniyazova Maysara Beknazarovna	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish	2149
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyevich	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli	2155
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi	2162
Djurakulova Adolat Xolmuratovna	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language	2165
Babayeva Komila Rishatovna	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
Buharbayev Muxtar Yusupovich	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar	2172
Do’schanova Nafosat Norimonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari	2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
Jumanazarova Guljahon	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
Kimsanboyeva Ruxsoraxon Ziyodbek qizi	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari	2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
Shamsiyeva M. R.	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari	2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки	2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)	



PARA ARMRESTLINGCHI TALABALARNI MUSOBAQA OLDI TEXNIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA KUCH SIFATINING O'RNI

Karimov Faxriddin Xurramovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Jismoniy madaniyat va sport faoliyati” kafedrası professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada para armrestlingchi talabalarning musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida kuch sifatlarning ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida maxsus kuch, tezkor kuch, kuch chidamliligi va portlovchi kuch kabi asosiy kuch ko'rsatkichlarining texnik mahorat bilan o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Maqolada zamonaviy sport nazariyasi va metodikasi nuqtai nazaridan armrestling sportining o'ziga xos jihatlari hamda nogironligi bo'lgan sportchilarning tayyorgarlik jarayonidagi funksional ehtiyojlari tahlil etilgan. Olingan natijalar para armrestlingda texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligi sportchining kuch potensialini maqsadga muvofiq rivojlantirish va undan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: para armrestling, kuch sifatlari, texnik tayyorgarlik, musobaqa oldi tayyorgarlik, maxsus kuch, talabalar, nogironligi bo'lgan sportchilar, sport trenirovkasi.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the importance of strength qualities in improving the pre-competition technical preparation of para-armwrestling students. The study examines the relationship between key strength indicators—special strength, speed strength, strength endurance, and explosive strength—and technical performance. From the perspective of modern sports theory and methodology, the specific characteristics of armwrestling and the functional training needs of athletes with disabilities are discussed. The findings demonstrate that the effectiveness of technical and tactical preparation in para-armwrestling is closely linked to the purposeful development and efficient utilization of the athlete's strength potential.

Key words: para-armwrestling, strength qualities, technical preparation, pre-competition training, special strength, students, athletes with disabilities, sports training.

Аннотация: В статье научно обоснована роль силовых качеств в процессе совершенствования предсоревновательной технической подготовки студентов-пара-армрестлеров. В рамках исследования проанализирована взаимосвязь основных силовых показателей, включая специальную силу, скоростную силу, силовую выносливость и взрывную силу, с уровнем технического мастерства. С позиций современной теории и методики спорта раскрыты специфические особенности армрестлинга, а также функциональные потребности спортсменов с ограниченными возможностями в тренировочном процессе. Полученные результаты подтверждают, что эффективность технико-тактической подготовки в пара-армрестлинге напрямую связана с целенаправленным развитием и рациональным использованием силового потенциала спортсменов.

Ключевые слова: пара-армрестлинг, силовые качества, техническая подготовка, предсоревновательная подготовка, специальная сила, студенты, спортсмены с ограниченными возможностями, спортивная тренировка.

KIRISH

Hozirgi kunda adaptiv sport turlarining izchil rivojlanishi hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning sport faoliyatiga keng jalb etilishi jamiyatning ijtimoiy va madaniy taraqqiyot darajasini aks ettiruvchi muhim omillardan biri sifatida baholanmoqda. Para armrestling zamonaviy adaptiv sport tizimida eng istiqbolli va jadal rivojlantirayotgan yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilib, ushbu sport turi asosan o'tiradigan aravada harakatlanuvchi hamda pastki ekstremitalarida nogironligi bo'lgan sportchilar uchun mo'ljallangan. Mazkur sport turi ularga o'z jismoniy imkoniyatlarini namoyon etish, sport mahoratini rivojlantirish va yuqori natijalarga erishish uchun qulay sharoit yaratadi.



Talaba yoshidagi para armrestlingchilar bilan ishlash alohida ilmiy-metodik yondashuvni talab etadi, chunki aynan ushbu davr organizmning jismoniy rivojlanishi va sport mahoratining shakllanishi uchun eng qulay bosqich hisoblanadi. Armrestling sportining o'ziga xos jihati qo'l va yelka muskullarining murakkab, muvofiqlashtirilgan harakatlariga asoslangan bo'lib, bunda kuch sifatlari va texnik tayyorgarlikning uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Musobaqa jarayonida yuqori natijalarga erishish sportchidan nafaqat yetarli kuch ko'rsatkichlariga ega bo'lishni, balki ushbu kuchni to'g'ri yo'nalishda va optimal vaqtda samarali qo'llash qobiliyatini ham talab etadi.

Para armrestling sharoitida mazkur omillar yanada dolzarb bo'lib, sportchilar o'z jismoniy imkoniyatlarini maksimal darajada safarbar etish hamda kompensator mexanizmlarni samarali faollashtirish zaruratiga duch keladilar. Musobaqa oldi texnik tayyorgarlik bosqichi sportchining to'plangan kuch potensialini maxsus texnik harakatlar orqali namoyon etish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon sifatida talqin etiladi. Kuch sifatlari armrestling sportida yetakchi jismoniy ko'rsatkichlar hisoblanib, ularning rivojlanganlik darajasi sport natijalarining barqarorligi va samaradorligi bilan bevosita bog'liqdir. Maksimal kuch, tezkor kuch, kuch chidamliligi va portlovchi kuchning kompleks rivojlanishi texnik elementlarning aniq va sifatli bajarilishini ta'minlaydi. Zamonaviy sport ilmiy tadqiqotlari kuch tayyorgarligining puxta tashkil etilishi sportchining funksional imkoniyatlarini oshirish, shikastlanish xavfini kamaytirish hamda sport faoliyati samaradorligini izchil ravishda yuksaltirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy sport nazariyasi va metodikasida kuch sifatlari sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini ta'minlovchi yetakchi jismoniy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Zatsiorskiy va Kraemer kuch tayyorgarligini sport natijalarining poydevori sifatida baholab, maksimal kuch, portlovchi kuch hamda kuch chidamliligining o'zaro uyg'un va muvozanatli rivojlanishi yuqori sport samaradorligini ta'minlashini ta'kidlaydi. Platonov sport tayyorgarligi tizimida kuch sifatlari texnik harakatlarning aniqligi, barqarorligi va samaradorligini belgilovchi muhim tarkibiy komponent ekanini asoslab beradi. Armrestling sporti bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda esa qo'l, bilak va yelka muskullarining maxsus kuch tayyorgarligi texnik elementlarning sifatli va muvaffaqiyatli bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan.

Adaptiv sport hamda para sportchilarning tayyorgarligi masalalariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar nogironligi bo'lgan sportchilarda kompensator mexanizmlarning rivojlanishi kuch tayyorgarligi orqali samarali amalga oshirilishini ko'rsatadi. Ivanova va Yusupovlarning tadqiqotlarida para sportchilarning yuqori ekstremitalar kuchini rivojlantirish ularning texnik mahoratini oshirish va musobaqa oldi tayyorgarlik samaradorligini ta'minlashda muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, armrestling bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar musobaqa oldi bosqichda maxsus kuch mashqlarini texnik tayyorgarlik bilan integratsiyalash sport natijalarining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy tahlil hamda adabiyotlar manbalarini sistemali o'rganishga asoslangan. Tadqiqot doirasida sport nazariyasi va metodikasi, adaptiv jismoniy madaniyat, armrestling sportining nazariy asoslari hamda kuch tayyorgarligi metodikasiga oid o'zbek, rus va xorijiy ilmiy manbalar kompleks tahlil qilindi. Sport nazariyasida kuch sifatlari harakat faoliyatining kuch parametrlarini belgilovchi jismoniy sifatlar majmui sifatida talqin etiladi [6]. Ilmiy adabiyotlarda armrestling sporti uchun maksimal statik kuch, dinamik kuch, izometrik kuch, portlovchi kuch va kuch chidamliligi kabi asosiy kuch turlari ajratib ko'rsatiladi. Ushbu kuch turlarining har biri muayyan texnik elementlarni samarali bajarishda muhim rol o'ynab, sportchining umumiy tayyorgarlik darajasini belgilaydi. Xususan, maksimal kuch sportchining bir martalik maksimal harakatda namoyon eta oladigan eng yuqori kuch ko'rsatkichi bo'lib, armrestlingda musobaqaning boshlang'ich bosqichida va raqib qarshiligini yengishda yetakchi ahamiyat kasb etadi [7].

Para sportchilarning kuch tayyorgarligiga bag'ishlangan tadqiqotlar nogironligi bo'lgan sportchilarning muskul tizimi yuqori adaptatsion imkoniyatlarga ega ekanini ko'rsatadi hamda maxsus ishlab chiqilgan metodikalar yordamida ularda yuqori sport natijalariga erishish mumkinligini tasdiqlaydi [8]. Para armrestlingchilar uchun kuch tayyorgarligining o'ziga xos jihati shundaki, mashg'ulotlar asosan yuqori ekstremitalar muskulasini rivojlantirishga yo'naltiriladi va pastki ekstremitalar funksiyalarini kompensatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar to'g'ri tashkil etilgan kuch mashqlari nafaqat muskullarning gipertrofiyasini, balki nerv-muskul koordinatsiyasining yaxshilanishini, sport texnikasining takomillashuvini hamda umumiy funksional tayyorgarlikning oshirishini ta'minlashini ko'rsatadi.

Musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichi sportchining umumiy tayyorgarlik tizimida alohida o'rin egallab, maxsus texnik-taktik tayyorgarlikka yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi [9]. Ushbu bosqichda oldingi mashg'ulot davrlarida



to'plangan kuch potensialini musobaqa sharoitlariga moslashtirish va texnik elementlarning avtomatlashtirilgan bajarilish darajasiga erishish asosiy maqsad hisoblanadi. Ilmiy manbalarda musobaqa oldi bosqichda kuch mashqlarining mazmuni va yo'nalishi o'zgarishi, ya'ni umumiy tayyorgarlik mashqlari hajmining kamayishi va maxsus tayyorgarlik mashqlari intensivligining oshishi ta'kidlanadi. Para armrestlingchilar uchun mazkur bosqichda psixologik tayyorgarlik ham muhim ahamiyat kasb etib, sportchilarda o'z kuch imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash va musobaqa stressiga tayyorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Texnik tayyorgarlik va kuch sifatleri o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik sport faoliyatining barcha turlarida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi [10]. Armrestlingda texnik mahorat qo'l, bilak, kaft va yelka muskullarining muvofiqashtirilgan ishlashiga asoslangan murakkab harakatlar tizimini o'z ichiga oladi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar yuqori darajadagi texnik tayyorgarlik faqat yetarli kuch bazasi asosida shakllanishini, biroq kuch ko'rsatkichlarining o'zi texnik tayyorgarliksiz yetarli samara bermasligini ko'rsatadi. Shu bois kuch va texnik tayyorgarlikni o'zaro uyg'un, bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar sifatida tashkil etish muhim hisoblanadi. Para armrestlingchilar uchun mazkur yondashuv ayniqsa dolzarb bo'lib, cheklangan harakat imkoniyatlari sharoitida mavjud resurslardan maksimal samarali foydalanish zaruratini taqozo etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili va nazariy umumlashtirish asosida olingan natijalar para armrestlingchi talabalarning musobaqa oldi texnik tayyorgarligida kuch sifatleri hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Avvalo, armrestling sportida zarur bo'lgan kuch sifatlarining o'ziga xos tuzilishi hamda ularning texnik elementlar bilan uzviy bog'liqligi aniqlangan. Maksimal kuch musobaqaning boshlang'ich bosqichida va raqib qarshiligini yengishda sportchiga muhim ustunlik yaratadi, biroq ushbu ko'rsatkichning yakka o'zi yuqori natijalarni ta'minlash uchun yetarli emas. Para armrestlingchi talabalar uchun kuch tayyorgarligining ahamiyati bir necha jihatlarida namoyon bo'ladi. Birinchidan, rivojlangan kuch ko'rsatkichlari sportchida o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va uni psixologik jihatdan musobaqalarga tayyorlaydi. Ikkinchidan, yetarli darajada rivojlangan kuch sifatleri texnik elementlarning aniq va sifatli bajarilishini ta'minlaydi, chunki qo'l va yelka muskullarining murakkab muvofiqashtirilgan harakatlari kuchli mushak bazasi asosida amalga oshiriladi.

Musobaqa oldi bosqichda kuch tayyorgarligining xususiyatlari alohida ilmiy e'tibor talab qiladi. Ushbu davrda kuch mashqlarining mazmuni maxsus yo'naltirilgan bo'lib, umumiy tayyorgarlik mashqlari hajmi nisbatan kamaytiriladi, maxsus-tayyorgarlov hamda musobaqa mashqlari intensivligi esa oshiriladi. Bunda kuch ko'rsatkichlarini keskin oshirish emas, balki avval to'plangan kuch potensialini musobaqa sharoitlariga moslashtirish asosiy vazifa sifatida belgilanadi. Para armrestlingchilar uchun mazkur bosqichda izometrik kuch mashqlari, qisqa vaqt davomida maksimal zo'riqish talab etuvchi mashqlar hamda musobaqaga yaqin sharoitlarni modelashtiruvchi maxsus mashqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Texnik takomillashtirish va kuch sifatlarini samarali namoyon etish o'rtasidagi muvozanat musobaqa oldi tayyorgarlikning asosiy printsiplaridan biri hisoblanadi.

Talaba yoshining o'ziga xos xususiyatlari ham kuch tayyorgarligi jarayonida e'tiborga olinishi zarur. Talabalik davri organizm rivojlanishining muhim bosqichi bo'lib, ushbu davrda mushak tizimining rivojlanish potentsiali nisbatan yuqori darajada saqlanib qoladi. Shu bilan birga, o'quv yuklamalari, kundalik turmush tarzi va stress omillari trenirovka jarayoniga muayyan ta'sir ko'rsatadi. Para armrestlingchi talabalar bilan ishlashda individual yondashuv printsiptini qo'llash, ularning nogironlik darajasi, funksional imkoniyatlari va psixologik holatini hisobga olish muhim hisoblanadi. Har bir sportchining individual xususiyatlariga mos ravishda kuch tayyorgarligi dasturini ishlab chiqish va uni muntazam monitoring qilish samarali tayyorgarlikni ta'minlovchi muhim shartlardan biridir.

Kuch sifatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari va vositalari para armrestlingchilar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Maxsus armrestling trenajorlari, qo'l va bilak kuchini rivojlantirishga mo'ljallangan moslamalar, izometrik mashqlar tizimi, pliometrik mashqlar elementlari hamda zamonaviy biomexanik monitoring usullaridan foydalanish trenirovka samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, an'anaviy kuch tayyorgarligi usullari ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Erkin og'irliklar bilan bajariladigan mashqlar, maxsus tayyorgarlov mashqlari, uzluksiz va interval mashg'ulot usullarining ilmiy asoslangan kombinatsiyasi yuqori sport natijalariga erishish imkonini beradi.

Texnik va kuch tayyorgarligining integratsiyasi musobaqa oldi bosqichning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Dastlabki tayyorgarlik bosqichlarida kuch sifatlarini alohida rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'lsa, musobaqalarga yaqinlashgan sari ushbu jarayonlarni texnik tayyorgarlik bilan birlashtirish va texnik elementlar doirasida kuchni samarali namoyon etish qobiliyatini shakllantirish zarur bo'ladi. Para armrestling sharoitida bu yondashuv ayniqsa dolzarb bo'lib, sportchilarning cheklangan harakat imkoniyatlari sharoitida maksimal samaradorlikka erishishga xizmat qiladi. Kompleks mashqlar, modelashtiruvchi trenirovkalar, musobaqaga yaqin vaziyatlarni takrorlovchi mashg'ulotlar hamda taktik variantlarni kuch asosida bajarishga yo'naltirilgan mashqlar texnik-kuch tayyorgarligining uzviy sintezini ta'minlaydi.



Olingan natijalar va amalga oshirilgan nazariy tahlil asosida shuni ta'kidlash mumkinki, para armrestlingchi talabalarning musobaqa oldi texnik tayyorgarligida kuch sifatлари qo'shimcha emas, balki asosiy va zaruriy komponent hisoblanadi. Kuch ko'rsatkichlarining yetarli darajada rivojlanganligi texnik mahoratning to'laonli namoyon bo'lishi uchun muhim shart-sharoit yaratadi, psixologik tayyorgarlikni mustahkamlaydi va sport natijalari samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, kuch tayyorgarligi yakka holda emas, balki texnik, taktik, psixologik va nazariy tayyorgarlik bilan uyg'unlashgan kompleks tizim sifatida tashkil etilgandagina yuqori sport natijalariga erishish mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy tahlil va adabiyotlar umumlashtirilishi asosida para armrestlingchi talabalarning musobaqa oldi texnik tayyorgarligida kuch sifatlarining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, armrestling sportida yuqori natijalarga erishish sportchidan maksimal kuch, portlovchi kuch, tezkor kuch va kuch chidamliligi kabi asosiy kuch ko'rsatkichlarining muvozanatli rivojlanishini talab etadi. Mazkur kuch sifatlarining har biri muayyan texnik vazifalarni samarali hal qilishda o'ziga xos rol o'ynaydi hamda ularning yetarli darajada rivojlanmaganligi texnik tayyorgarlik samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Para armrestlingchi talabalar uchun kuch tayyorgarligi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ushbu sportchilar cheklangan harakat imkoniyatlari sharoitida o'z jismoniy resurslarini maksimal darajada safarbar etishlari va yuqori darajadagi kompensator mexanizmlarni shakllantirishlari zarur. Talaba yoshi organizm rivojlanishining muhim bosqichi bo'lib, aynan ushbu davrda ilmiy asoslangan va to'g'ri yo'naltirilgan kuch tayyorgarligi yuqori sport natijalariga erishish uchun qulay sharoit yaratadi. Musobaqa oldi bosqichda kuch tayyorgarligi maxsus xarakterga ega bo'lib, to'plangan kuch potensialini musobaqa sharoitlariga moslashtirish hamda texnik elementlar doirasida samarali namoyon etish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi.

Para armrestlingchi talabalar tayyorgarlik jarayonida kuch sifatlarini rivojlantirish texnik mashg'ulotlar bilan uzviy uyg'unlashtirilishi lozim. Musobaqa oldi bosqichda izometrik va maxsus kuch mashqlariga ustuvor ahamiyat berish, individual yondashuvni kuchaytirish, shuningdek, biomexanik nazorat vositalaridan tizimli foydalanish sport natijalarining barqaror va izchil oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Иванова Л. А. Адаптивный спорт как средство социальной интеграции лиц с ограниченными возможностями здоровья // Теория и практика физической культуры. – 2022. – № 8. – С. 45–47.
2. Abdullayev R. N. Talaba sportchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021. – 156 b.
3. Bezkorovainyi D. O. Strength training in armwrestling: modern approaches // Journal of Physical Education and Sport. – 2023. – Vol. 23. – No. 4. – P. 892–899.
4. Mazloev E. B., Kharlampiev A. A. Armrestling: metodika trenirovki i sportivnaya podgotovka // Fizicheskaya kul'tura: vospitanie, obrazovanie, trenirovka. – 2021. – № 6. – S. 34–37.
5. Zatsiorsky V. M., Kraemer W. J. Science and Practice of Strength Training. – 3rd ed. – Champaign: Human Kinetics, 2021. – 248 p.
6. Холодов Ж. К., Кузнецов В. С. Теория и методика физической культуры и спорта: учебник для студентов высших учебных заведений. – Москва: Академия, 2020. – 480 с.
7. Живора П. В., Рахматов А. И. Специальная силовая подготовка в армрестлинге. – Киев: Олимпийская литература, 2019. – 224 с.
8. Yusupov F. M., Karimova G. Sh. Nogiron sportchilarning funktsional imkoniyatlarini baholash. – Toshkent: Fan, 2023. – 142 b.
9. Платонов В. Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и её практические приложения. – Москва: Советский спорт, 2020. – 820 с.
10. Верхошанский Ю. В. Основы специальной силовой подготовки в спорте. – Москва: Советский спорт, 2019. – 216 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.